

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHKIL ETISHNING ZARURLIGI

Botirali Toshbayevich YULDASHEV

Iqtisod fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish muammolari, ularni bartaraf etish yo'nalishlari va ichki auditni baholash asoslari haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar: ichki audit, konsalting, autsorsing, budjet tashkiloti, ichki nazorat, baholash, samaradorlik, budjet intizomi.

НЕОБХОДИМОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Ботирали Тошбаевич ЮЛДАШЕВ

Доктор философии по (PhD) экономическим наукам
Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий
Андижан, Узбекистан

Аннотация

В данной статье речь идет о проблемах организации внутреннего аудита в бюджетных организациях, направлениях их устранения и основах оценки внутреннего аудита.

Ключевые слова: внутренний аудит, консалтинг, аутсорсинг, бюджетная организация, внутренний контроль, оценка, эффективность, бюджетная дисциплина.

Hozirgi vaqtda qator sohalar faoliyatida ichki audit tizimini joriy etish va isloh qilish kengayib bormoqda, chunki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuzasidan tezkor, ishonchli va to'g'ri axborot bazasiga ega bo'lishga intilishi sub'ektda ichki audit tarkibiy bo'linmasiga ega bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni tashkilotning buxgalteriya hisobiga oid konsalting xizmatlaridan foydalanishi yoki autsorsing xizmatlarini jalb etishi ma'lum ma'noda tavakkalchilikni oshiradi.

Ho'sh, budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini tashkil etish va isloh qilish qanchalik zaruriyatga ega, chunki xususiy sektordan farqli o'laroq budjet

tashkilotlari faoliyati, xususan moliyaviy-xo'jalik faoliyati davlat sektori tomonidan to'liq tartibga solinadi va uning nazorati davlatning yuqori organlari zimmasiga yuklatilgan.

Ichki audit - bu budjet muassasasidagi ichki audit bo'linmasining boshqaruv tizimini takomillashtirishga, budjet mablag'laridan noqonuniy, samarasiz foydalanish, budjet muassasasi va unga bo'ysunuvchi budjet tashkilotlari faoliyatidagi xatolar yoki kamchiliklarning oldini olishga va ichki nazoratni takomillashtirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, "Budjet intizomiga rioya etilishi va budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan 7133 ta moliyaviy nazorat tadbirining 5380 tasida yoki 75 foizida 122 milliard 800 million so'mlik kamomad, 949 milliard 300 million so'mlik noqonuniy xarajatlar aniqlangan" [1].

Bundan budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan ichki nazoratni kuchaytirish hamda uning samarali tashkil etishlida uning qonunosti me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish naqadar zarurligini yana bir bor dolzarb ekanligini anglashimiz mumkin.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb, zaruriy va asosiy chora-tadbirlardan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, budjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlari ijrosi darajasiga baho berish bilan izohlanadi. Aslini olganda, ichki audit tashkilotda ichki nazorat tizimining bir qismi hisoblanib, uni boshqaruv tizimiga kiritish tashkilot faoliyati samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini tashkil etish va uni to'liq isloh etish hanuzgacha asosiy muammo bo'lib qolmoqda, xususan uni shakllantirilishida yuzaga kelayotgan quyidagi muammolarni sanab o'tish maqsadga muvofiqdir:

- 1) budget tashkilotlarida ichki audit tizimini tashkil etishning konseptual asosi yaratilmaganligi;
- 2) budget tashkilotlarida ichki audit xizmati ko'rsatish yuzasidan uslubiy ta'minoti yaratilmaganligi;
- 3) ichki audit xizmati xodimlarining maqsadi, vazifalari, huquqi, majburiyatlari va javobgarligi to'liq belgilab berilmaganligi;
- 4) budget tashkilotlarida ichki audit bo'limi va faoliyati tartibi, xorijiy tajribalarga asoslangan namunaviy dasturi va rejasi ishlab chiqilmaganligi;
- 5) budget tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etishga oid maxsus standartlar ishlab chiqilmaganligi;
- 6) budget tashkilotlarida ichki audit bo'limi faoliyatini tartibga solish bo'yicha namunaviy Nizom, yo'riqnoma va tartib-qoida joriy etilmaganligi;
- 7) budget tashkilotlarida ichki audit xizmati ichki me'yoriy xujjatlarining namunaviy shakllari ishlab chiqilmaganligi;
- 8) budget tashkilotlari boshqaruv tuzilmasida ichki audit bo'limining alohida o'rin egallamaganligi;
- 9) budget tashkilotlari boshqaruv organlariga ichki audit bo'limi choraklik hisobotlari taqdim etilmasligi;
- 10) budget tashkilotlarida ichki audit bo'limi hisobotlarining namunaviy shakllari ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

Budget tashkilotlarida ichki audit xizmati faqat tashkilot faoliyatini qisman tekshiruvdan o'tkazish bo'lmasligi kerak, undan tashqari budget tashkilotlarida faoliyat yurituvchi ichki auditorlar budget muassasasi faoliyatida qoidabuzarliklar yo'qligini kafolatlashlari shart. Ichki audit tomonidan tashkilot ichki moliyaviy nazorat tizimi samaradorligini tekshirish, buxgalteriya hisobi va unga yondosh xizmatlarga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari ham yuklatiladi.

Shuning uchun, budget tashkiloti rahbariyati yoki boshqaruv organlari tashkilotda ichki audit o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni ta'minlashi shart.

Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati tashkil etilishi va samarali ishlashi quyidagi tashkiliy va uslubiy masalalar hal etilishini taqozo etadi:

- ichki audit xizmatining maqsad va vazifalarining tashkilot moliyaviy-xo‘jalik faoliyati xususiyatlari va maqsadlariga muvofiqligini aniqlash;
- budjet tashkilotlari xususiyatlariga mos keluvchi ichki audit xizmati tuzilmasini shakllantirish;
- budjet tashkilotlarida ichki audit o‘tkazilishida zamonaviy axborot va tahliliy texnologiyalardan foydalanish uchun sharoitlarni yaratib berish;
- budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etish yuzasidan zaruriy uslubiy bazani ishlab chiqish va shakllantirish;
- budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishning tashkiliy jihatlarini takomillashtirish;
- budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati samaradorligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va usullarini ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2023-yil 14-avgust 377-son Qarori [2]qabul qilindi. Ushbu Nizomning 3-bobi Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibida Ichki audit xizmatlarining xavf darajasi va ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasini baholash tartiblari belgilab berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-son qarori bilan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizomga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi xavf tahlili asosida tanlab olgan holda vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholaydi va ularning faoliyatini takomillashtirish choralarini ko‘radi.

Har 6 oy yakunlari bilan vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari va ularning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar jamoatchilikka e‘lon qilib boriladi.

Nizom talablariga muvofiq, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni quyidagi tartibda amalga oshirilishi belgilandi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan har yili 1-martga qadar xavf tahlili asosida baholash rejasi ishlab chiqiladi;

baholash to'g'risida vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati kamida o'n kun oldin xabardor qilinadi va baholash muddati o'n ish kunidan oshmagan muddatda o'tkaziladi;

baholash ichki audit xizmatlari va ichki audit obyektlari savolnomalari asosida o'tkaziladi;

baholash natijalari ma'lumotnoma ko'rinishida rasmiylashtiriladi, ichki audit tuzilmasi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan berilgan taklif va tavsiyalar asosida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi;

baholash natijalari to'g'risida ma'lumotlar vazirlik va idoralarning rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

Ichki audit xizmatlarining xavf darajasi ushbu Nizomning 13-bandida belgilangan omillarga butun sonlardagi 1 – 3 ball berish orqali baholanadi.

Bunda 3 ball tegishli xavf omilining eng yuqori darajasini va 1 ball tegishli xavf omilining eng past darajasini bildiradi.

Xavf omillariga ball berishda baholovchi tashkilot tomonidan har bir xavf omiliga mezonlar ishlab chiqiladi hamda xavf omillarining muhimlik darajasidan kelib chiqib, ularga xavf omili vazni belgilanadi.

Bunda belgilangan xavf omili vaznining umumiy miqdori 1 ga (100 foizga) tengbo'lishi kerak.

Ichki audit xizmatlarining xavf darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$X_d = \sum_{i=1}^n (B_{xo_i} \times B_{xo_i})$$

bunda:

X_d — xavf darajasi;

B_{xo} — xavf omiliga berilgan ball;

V_{x_0} — tegishli xavf omiliga belgilangan vazn;

i — xavf omilining tegishli tartib raqami;

n — xavf darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan omillar soni.

Ichki audit xizmatining xavf omillari tahlili bo'yicha xavf darajasi quyidagicha baholanadi:

2 va undan yuqori — yuqori xavf darajasi;

1,5 dan (1,5 ham kiradi) 2 gacha — o'rta xavf darajasi;

1 dan 1,5 gacha — past xavf darajasi.

Baholashni amalga oshirishda ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$C_d = \sum_{i=1}^n \left(\frac{B_{x_i}}{B_{M_i}} \times B_{B_i} \right)$$

bunda:

S_d — sifat darajasi;

B_h — savolnomada har bir yo'nalishdagi savollarga berilgan ballar yig'indisi;

B_m — savolnomada har bir yo'nalishdagi savollarga berilishi mumkin bo'lgan eng yuqori ballar yig'indisi;

B_v — savolnomada keltirilgan baholash yo'nalishlariga belgilanadigan vazn;

i — savolnomada keltirilgan yo'nalishlarning tegishli tartib raqami;

n — savolnomadagi yo'nalishlar soni.

Ichki audit xizmati faoliyatining baholash bo'yicha sifat darajasi quyidagicha baholanadi:

90 foiz va undan yuqori — yuqori;

70 foizdan (shu jumladan, 70 foiz) 90 foizgacha — o'rta;

70 foizdan kam — past.

Baholash bo'yicha hisobot Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 6 oy yakunlari bo'yicha 20-iyulga qadar va yil yakunlari bo'yicha 25-yanvarga qadar Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.

Ushbu Nizomning qabul qilinishi vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati sifati va samaradorligini ortishiga, budget mablag'larining noqonuniy sarflanishini oldi olinishiga xizmat qiladi hamda budget intizomiga rioya etilishi va budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://yuz.uz/news/2021-yil-yakuni-va-2022-yilning-birinchi-choragi-boyicha-davlat-byudjeti-va-davlat-maqsadli-jamgarmalari-byudjetlari-ijrosi-tanqidiy-korib-chiqildi>
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2023-y., 09/23/377/0608-son)
3. <https://www.imv.uz/qr/news/category/yangiliklar/post-1457>
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi axboroti.
5. Юлдашев Б.Т. Организационно-правовые основы учёта и внутреннего аудита внебюджетных средств в бюджетных организациях. // Журнал "Проблемы современной науки и образование" №6 (151) июнь 2020 г. Россия Издательства Проблемы науки.47-51 стр.
6. Yuldashev Botirali Toshbaevich, Azizbekova Farzona Azizbek Kizi//Procedures for Conducting Internal Audits in Budget Organizations.//Middle European Scientific Bulletin, volume. 21 Feb 2022. 173-180 page.ISSN 2694-9970
7. Yuldashev B. T.,Hojiboev M. S.,Mamanazarov T. A., Gopparov M. O.Organization of internal audit service in budget organizations based on foreign Experience neuroquantology | october 2022 | volume 20 | issue 12 | page 2585-2594| doi: 10.14704/nq.2022.20.12.nq77239
8. Юлдашев Б.Т., Лукмонов А, Хасанов О.Вопросы совершенствования внутреннего аудита внебюджетных фондов в бюджетных

организациях. <http://www.openconference.us>

Innovative

Society:

Problems, Analysis and Development Prospects 2022. 170-174 стр

9. Yuldashev B.T. Problems of improving the internal audit of extra-budgetary funds in higher education institutions.// Monthly Peer Reviewed & Indexed International Journal Volume: 7 Issue: 3 October India-2020 3-11 page.